

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРНИНГ ЖИНОЯТ-ПРОЦЕССУАЛ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҲИМОЯ МАСАЛАЛАРИ

Xaitbayev Otabek Ganiyjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

Magistratura tinglovchisi.

xayitboyevotabek11@gmail.com +99897-453-88-68.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11115331>

Annotatsiya. Jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ishni yuritishda himoyachi huquqlarini amalga oshirishdagi muammolarni o'rganish, tadqiq etish, uning protsessual maqomini belgilash va shu asosda himoyachi huquqlarini kengaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda rivojlangan xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligini o'rganish va tahlil etish muhimodda Mazkur tezisda aynan himoyachining haq-huquqlarini ta'minlash bilan bogliq xorijiy davlatlar tajribasi ularning jinoyat-protsessual qonunlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi, advokat, himoya tushunchasi, Miranda qoidasi, xalqaro hamkorlik, dalillarni to'plash, himoya ostidagi shaxs, xorijiy tajriba, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoya huquqi, ayblovni yumshatish, himoya tarafi, rehabilitatsiya qilish.

DEFENSE ISSUES IN THE CRIMINAL-PROCEDURAL LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES

Abstract. It is important to study and analyze the criminal-procedural legislation of developed foreign countries in order to study and analyze the problems in the implementation of the rights of the defender in all stages of the criminal proceedings, to determine its procedural status and to develop proposals and recommendations aimed at expanding the rights of the defender. In this thesis, the experience of foreign countries related to ensuring the rights of the defender is analyzed on the basis of their criminal procedural laws.

Key words: Criminal-procedural legislation of foreign countries, lawyer, concept of defense, Miranda rule, international cooperation, collection of evidence, person under protection, foreign experience, right of defense of suspect and accused, mitigation of charge, defense, rehabilitation.

ВОПРОСЫ ОБОРОНЫ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН.

Аннотация. Важно изучить и проанализировать уголовно-процессуальное законодательство развитых зарубежных стран с целью изучения и анализа проблем реализации прав защитника на всех стадиях уголовного судопроизводства, определения его процессуального статуса и разработки предложений и рекомендации, направленные на расширение прав защитника. В данной диссертации анализируется опыт зарубежных стран, связанный с обеспечением прав защитника на основе их уголовно-процессуального законодательства.

Ключевые слова: Уголовно-процессуальное законодательство зарубежных стран, адвокат, концепция защиты, правило Миранды, международное сотрудничество, сбор

доказательств, подзащитный, зарубежный опыт, право на защиту подозреваемого и обвиняемого, смягчение обвинения, защита, реабилитация.

Jinoyat protsessida himoya tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tib, shuni aytish mumkinki, himoya – har bir shaxsning himoyaga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatidir. Biroq shunga qaramay, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida himoya tushunchasiga ta'rif berib o'tilmagan. Garchi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi 2003 yil 19 dekabrda 17-sonli qarorida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoya huquqi deyilganda – vujudga kelgan gumon hamda qo'yilgan ayblovni rad etish yoki javobgarlik va jazoni yumshatish uchun unga qonun tarafidan berilgan protsessual imkoniyatlar yig'indisi tushunilishi belgilangan bo'lsada, biroq ushbu ta'rif ham himoya tushunchasining mohiyatini to'laqonli ochib bera olmaydi[1]. Shu sababli aytish mumkinki, himoya tushunchasining butun mazmunini o'zida aks ettiruvchi norma nafaqat JPKda, balki jinoyat-protsessual qonunchilikda mavjud emas.

Himoya tushunchasi xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida quyidagicha o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra:

Qirg'iziston Respublikasi JPK (5-modda)da, himoya – bu himoya tarafi tomonidan jinoyat yoki jinoiy harakatni sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxs huquq va manfaatlarini ta'minlash, ayblovni rad etish yoki uni yengillashtirish, shuningdek, noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan protsessual faoliyatdir[2].

Armaniston Respublikasi JPK (6-modda)da himoya – bu himoya tarafi tomonidan ayblovni rad etish yoki javobgarlikni yengillashtirish, Jinoyat kodeksida ta'qiqlangan harakat sodir etilganligi aniqlangan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishga yordam berishdan iborat bo'lgan protsessual faoliyat sifatida ta'riflangan[3].

Ozarbayjon Respublikasi JPKda himoya tushunchasi – jinoiy qonunda nazarda tutilgan harakatni sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsga qarshi ilgari surilayotgan ayblovni rad etish yoki uni yengillashtirish, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek noqonuniy tarzda jinoiy ta'qibga uchragan shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan protsessual faoliyatdir, deya ta'rif berilgan[4].

Belarusiya Respublikasi JPK (6-modda)da himoya – bu himoya tarafi tomonidan gumon yoki ayblovni rad etish yoxud ayblovni yumshatish, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs va o'zaro hamkorlik tamoyili asosida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish masalasi yuzasidan qaror qabul qilishga vakolatli xorijiy davlat organining so'rovi ijrosini ta'minlash to'g'risidagi qaror asosida ehtiyot chorasi qo'llanilib yoki xalqaro qidiruvda bo'lganligi sababli topshirish maqsadida ushlangan shaxs huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan protsessual faoliyatdir, deya ta'rif berilgan[5].

Rossiya[6], Estoniya[7], Tojikiston[8] va Turkmaniston[9] Respublikalari JPKlarida esa xuddi mamlakatimiz JPKda bo'lgani kabi himoya tushunchasiga ta'rif berib o'tilmagan.

Ukraina JPK (22-modda)da esa himoya gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning himoyachisi yoki ularning qonuniy vakili tomonidan amalga oshirilishigina belgilangan, xolos[10].

Yuqorida keltirilgan olimlar fikrlari va xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual kodekslarida keltirilgan himoya tushunchasiga berilgan ta'riflardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, himoyaning asosiy maqsadi – jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan, ayblanayotgan shaxs huquq va manfaatlarini himoya qilish, gumonni rad etish, ayblovni yumshatish, jazoni yengillashtirish hamda noqonuniy tarzda jinoiy ta'qibga uchragan shaxslarni rehabilitatsiya qilishdan iboratdir. Himoya huquqi jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ta'minlanadi.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksi tahlil qilinganida, shaxs jinoyat ustida qo'lga tushganda yoki unda jinoyat izlari topilganda, unga o'sha zahotiyoq qo'yilayotgan gumon mazmuni tushuntirilib, uning himoya huquqiga egaligi va advokat yordamidan foydalanish huquqi ta'minlanishining ma'lum qilinishi va shundan keyingina shaxs so'roq qilinishini ko'rishimiz mumkin. Biroq jinoyatni sodir etgan shaxs ma'lum bo'lmagan holatda dastlabki surishtiruv harakatlari amalga oshirilib, bunda gumon ostiga olingan shaxsni so'roq qilishdan oldin unga huquqlari, jumladan advokat yordamidan foydalanish huquqi mavjudligi tushuntiriladi va uning advokat bilan uchrashuvi ta'minlanadi[11].

Rivojlangan mamlakatlarning protsessual qonunchiligida mavjud bo'lgan tergovga qadar tekshiruv institutiga nazar tashlaydigan bo'lsak, AQShda politsiya xodimlari tomonidan gumon ostiga olingan shaxs (ko'chada bo'lsa) to'xtatilishi (ushlanishi) bilan so'roq qilishdan oldin eng avvalo unga uning sukut saqlash huquqi mavjudligi, har bir aytgan so'zi sudda o'ziga qarshi dalil sifatida foydalanishi mumkinligi, shuningdek advokat olish huquqiga egaligi, agar advokat xizmati uchun pul to'lash imkoniyati mavjud bo'lmasa, davlat tomonidan advokat bilan ta'minlanishi, shu bilan birgalikda ushbu huquqlarni tushungan yoki tushunmaganligi so'ralib, tasdiqlatib olinadi ("Miranda qoidasi")[12]. AQShning Texas, Arizona va Kaliforniya kabi shtatlari qonunchiligida esa agar so'roq qilinayotgan shaxs Amerika Qo'shma shtatlari fuqarosi bo'lmasa, savollarga javob berishdan avval o'z mamlakati elchisi bilan aloqada bo'lish mumkinligi tushuntiriladi. Germaniyaning jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq esa gumon ostiga olingan shaxs birinchi so'roq oldidan qanday huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinayotgani ma'lum qilinib, u Jinoyat kodeksining mazkur jinoyat haqidagi tegishli moddasi bilan tanishtirilishi, shuningdek ushbu gumonga nisbatan o'z munosabatini bildirish yoki bildirmaslik, har qanday vaqtda va so'roq qilingunga qadar o'zi tanlagan advokat bilan xoli uchrashish kabi huquqlari tanishtirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan[13].

Jinoyat-protsessual huquqidagi eng munozarali masalalardan biri bu himoyachining isbot qilish jarayonidagi ishtirokidir. JPKning 87-moddasi 2-qismida himoyachining jinoyat ishi yuzasidan dalillar to'plash va ularni taqdim etishga haqli ekanligi belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda himoyachining isbot qilish jarayonidagi ishtirokini uning dalillarni to'plash va taqdim etish bilan bog'liq huquqlarini amalga oshirish jarayonini tahlil etish orqali ko'rib chiqamiz. Shu o'rinda dalillarni to'plash tushunchasi mohiyatini tahlil etib, ushbu tushunchaning xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida quyidagicha tartibga solinganligini kuzatishimiz mumkin:

Ukraina Respublikasi JPKning dalillarni to'plashni tartibga soluvchi 93-moddasida

dalillarni to'plash tartibi quyidagicha belgilangan[14]:

1) Dalillarni to'plash vakolatiga jinoyat ishini yurituvchi sub'ektlardan tashqari jabrlanuvchi hamda yuridik shaxs vakili ega hisoblanadi;

2) Dalillar tergov (qidiruv) harakatlarini va nooshkora tergov (qidiruv) harakatlarini bajarish orqali to'planishi mumkin;

Xalqaro hamkorlikni amalga oshirish natijasida ham xorijiy davlat hududidan muayyan ish yuzasidan dalillar olinishi mumkin.

Belarusiya Respublikasi JPKning dalillarni to'plash deb nomlangan 103-moddasida dalillarning tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari bo'yicha to'planishi mumkinligi belgilanmagan, ammo "tezkor ish yuritish" va jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini tekshirish jarayonida ham to'planishi belgilangan[15]. Shuningdek, dalillarni to'plash yuzasidan Belarusiya Respublikasi jinoyat- protsessual qonunchiligi va mamlakatimizdagi bu boradagi mavjud qonunchilikni taqqoslaganimizda, Belarusiya Respublikasi JPKda dalillarni to'plash vositalari hisoblangan tergov harakatlari 8 ta bo'lsa, bizning JPKda esa ushbu tergov harakatlari 16 tani tashkil etadi. Shu bilan birgalikda Belarusiya Respublikasi JPKda dalillar davlat ayblovchisi, xususiy ayblovchi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakili, shuningdek har qanday yuridik va jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilishi belgilangan. Ushbu holat ijobiy xorijiy tajriba o'rnida dalillarni taqdim qilishni isbot qilishning mustaqil bosqichi sifatida belgilash to'g'risidagi normani qonunchilikka kiritish yuzasidan bergan taklifimizning o'rinli ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Armaniston Respublikasi JPKda dalillarni tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planishi belgilanmagan hamda dalillarni to'plash vakolatiga ega sub'ektlar ko'rsatilmagan[16].

Moldova Respublikasi JPKda dalillarni to'plashning quyidagi tartibi belgilanganligini ko'rish mumkin[17]:

1) dalillarni to'plash vakolatiga ega sub'ektlar jinoiy ta'qib organlari va sud hisoblanadi; himoyachi himoyasi ostidagi shaxsning roziligi bilan muayyan ish yuzasidan mutaxassis fikrini so'rash huquqiga ega;

Estoniya Respublikasi JPKda dalillarni to'plashning quyidagicha farqli taraflarini ko'rish mumkin[18]:

1) dalillarni to'plash ularni yig'ish jarayonida qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilmaslik, unga nisbatan har qanday ko'rinishdagi tahdid va zarar yetkazmaslik sharti bilan amalga oshirilishi;

2) tergov va prokuratura organlarining dalil to'plash jarayonida mustaqil ekspertlarni jalb etish huquqiga egaligi;

3) dalillarni tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish yo'li bilan to'plashning alohida normalarda tartibga solinganligi.

Rossiya Federatsiyasining JPKda esa dalillarni to'plashning quyidagi farqli jihatini ko'rishimiz mumkin[19]:

Himoyachi shaxslarni so'rovdan o'tkazish uchun ularning roziligini so'rashi belgilangan. Mamlakatimiz JPKda esa himoyachi shaxslardan yozma tushuntirish olishi uchun ularning roziligini olishi talab etiladi.

Qozog'iston Respublikasining JPKdagi farqli jihatlar quyidagilardan iboratdir[20]:

1) dalillarni aniqlash va ularni mustahkamlash isbot qilishning mustaqil bosqichlari sifatida belgilanganligi;

2) sudning dalil to'plash tashabbusiga ega emasligining qat'iy belgilanganligi; himoyachi yuridik shaxslardan, xususan, davlat organlari va jamoat birlashmalaridan ma'lumotnoma, tavsifnoma va boshqa hujjatlarni talab qilganida, ushbu hujjatlar yoki ularning nusxalarini himoyachi yoki jabrlanuvchining vakiligi 10 kunlik muddat ichida topshirishi shartligi to'g'risidagi normaning qat'iy belgilanganligi;

3) himoyachiga shartnoma asosida sud ekspertizalarini o'tkazish va ishga mutaxassisni jalb etish, jinoyat ishiga aloqador shaxslarni ularning roziligi bilan maxsus texnik vositalarni qo'llagan holda so'rovdan o'tkazish;

4) qamoqqa olish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilayotganda himoyachi tomonidan so'ralayotgan hujjat 24 soat ichida unga taqdim etilishi shartligining belgilanganligi;

5) himoyachi tomonidan to'plangan ma'lumotlar elektron tarzda topshirish mumkinligining belgilanganligi;

6) dalillarni to'plash yuzasidan belgilangan protsessual majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikning mavjudligi.

Aytish mumkinki, Qozog'iston Respublikasi JPKdagi dalillarni to'plash yuzasidan belgilangan normalarni ijobiy xorijiy tajriba sifatida baholab, milliy qonunchilikka tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qozog'iston Respublikasi JPKda belgilangan himoyachining shartnoma asosida ekspertiza xulosasini olish va mutaxassisni ishga jalb etishi to'g'risidagi normaning Qirg'iziston Respublikasi JPKda ham belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, himoyachi tomonidan shartnoma asosida ishga ekspert va mutaxassisni jalb etish amaliyoti xorijiy davlatlar tajribasida yo'lga qo'yilgan va bu amaliyot bugungi kunga qadar o'zini ijobiy tarafdin oqlab kelmoqda. Bu esa ushbu amaliyotni xorijiy tajribadan o'tganligi nuqtai nazaridan milliy qonunchiligimizga tatbiq etish mumkinligini anglatadi. Shu orqali himoyachining isbot qilish faoliyatidagi huquqlari kengayishiga va protsessual imkoniyatlari oshirilishiga erishish mumkin bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida» 19.12.2003 yildagi 17-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-1453755>
2. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 2 февраля 2017 года (по сост. на 16.02.2024). (Электр. ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
3. Уголовно-процессуальный кодекс Республика Армения от 1 сентября 1998 года (по сост. на 01.07.2022). (Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
4. Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года (по сост. на 22.12.2023). (Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года (По

- сост. на 17.07.2023).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
6. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года (по состоянию на 22.04.2024). (Электр. ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 7. Уголовно-процессуальный кодекс Республика Эстонии от 12 февраль 2003 года (по сост. на 01.04.2024).(Электронный ресурс). Режим доступа: <https://www.juristaitab.ee>
 8. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (по сост. на 03.01.2024). (Электр. ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 9. Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана от 18 апреля 2009 года (по состоянию на 03.06.2023). (Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 10. Уголовно-процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года (по состоянию на 08.12.2023).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 11. Мелешко А. Уголовный процесс Франции: краткий очерк. Часть 1, 2.– Санкт-Петербург., 2017. // URL: <https://www.advgazeta.ru/mneniya/ugolovnyy-protsess-frantsii-kratkiy-ocherk-chast-1/>
 12. Утениязов Т. Ўзбекистонда “Миранда қоидаси” қандай ишлайди? Халқаро тажриба, маҳаллий қонунчилик ва амалиётдаги муаммолар хусусида. Advokat №1–2, 2020.
 13. Утениязов Т. Ўзбекистонда “Миранда қоидаси” қандай ишлайди? Халқаро тажриба, маҳаллий қонунчилик ва амалиётдаги муаммолар хусусида. Advokat №1–2, 2020.
 14. Уголовно-процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года (по состоянию на 08.12.2023).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 15. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года (по сост. на 17.07.2023).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 16. Уголовно-процессуальный кодекс Республика Армения от 1 сентября 1998 года (по сост. на 01.07.2022).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 17. Уголовно-процессуальный кодекс Республика Молдова от 14 марта 2003 года (по сост. на 24.11.2023). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 18. Уголовно-процессуальный кодекс Республика Эстонии от 12 февраль 2003 года (по сост. на 01.04.2024).(Электронный ресурс). Режим доступа: <https://www.juristaitab.ee>
 19. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года (по состоянию на 22.04.2024). (Электр. ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>
 20. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года (По сост. на 16.11.2023).(Электронный ресурс). Режим доступа: <http://base.spininform.ru>